



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 226 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	



JADID PEDAGOGIK KONSEPSIYASI VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI INTEGRATSIYASI: TARIXIY- PEDAGOGIK TAHLIL VA AMALIY YO'NALISHLAR

Shamsullayeva Ruksatoy Sunnatullayevna
Researcher, Bukhara State Pedagogical Institute

ORCID: 0009-0001-0096-9781

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston, xususan Buxoro jadidchilik harakati vakillari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik konsepsiyalarning zamonaviy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuv imkoniyatlari tarixiy-pedagogik tahlil asosida yoritilgan. Jadidlarning ta'lim mazmunini tanlash mezonlari (hayotiylik, milliylik, zamonaviylik), usul-us-savtiya fonetik o'qitish metodining zamonaviy "Phonics" va "Deep learning" yondashuvlari bilan uyg'unligi, shuningdek jadidlarning xalqaro ta'lim tajribasini o'zlashtirish borasidagi tashabbuslari tadqiq etilgan. Muallif jadid-zamonaviy integratsion model asosida ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning amaliy yo'nalishlarini taklif etadi hamda Buxoro shahridagi Jadidlar merosi davlat muzeyi tajribasi misolida jadid merosini institutsionallashtirish jarayonini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari jadid pedagogik g'oyalarining nafaqat tarixiy, balki amaliy-metodik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, jadid pedagogikasi, usul-us-savtiya, ta'lim mazmuni, modernizatsiya, milliy ta'lim, ta'lim islohoti.

Abstract: This article examines, on the basis of historical-pedagogical analysis, the possibilities of integrating the pedagogical concepts developed by representatives of the Jadid movement of Turkestan, particularly Bukhara, with the modern education system. The study explores the Jadids' criteria for selecting educational content (relevance, national identity, and modernity), the correspondence between the usul-us-savtiya phonetic teaching method and contemporary "phonics" and "deep learning" approaches, as well as the Jadids' initiatives to adopt international educational experience. The author proposes practical directions for modernizing educational content based on a Jadid-modern integrative model and analyzes the institutionalization of Jadid heritage through the example of the State Museum of Jadid Heritage in Bukhara.

Key words: Jadidism, Jadid pedagogy, usul-us-savtiya, educational content, modernization, national education, education reform.

Аннотация: В данной статье на основе историко-педагогического анализа рассматриваются возможности интеграции педагогических концепций представителей джадидского движения Туркестана, в частности Бухары, с современной системой образования. Исследованы критерии отбора содержания образования джадидов (практичность, национальность, современность), соответствие фонетического метода обучения усул-ус-савтия современным подходам "Phonics" и "Deep learning", а также инициативы джадидов по освоению международного образовательного опыта. Автор предлагает практические направления модернизации содержания образования на основе джадидско-современной интерпационной модели, а также анализирует процесс институционализации джадидского наследия на примере Государственного музея наследия джадидов в Бухаре.

Ключевые слова: джадидизм, джадидская педагогика, усул-ус-савтия, содержание образования, модернизация, национальное образование, реформа образования.

KIRISH

Milliy ta'lim tizimini tubdan yangilash va uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish O'zbekiston Respublikasining strategik ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu jarayonda tarixiy pedagogik merosga, xususan, XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan jadidchilik harakati vakillarining ma'rifiy-pedagogik g'oyalariga murojaat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugungi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Zero, jadid bobolarimizning g'oyalari va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan hamohangdir.

Jadidchilik harakati nafaqat siyosiy-ijtimoiy islohotchilik yo'nalishi, balki mukammal pedagogik tizim sifatida ham shakllangan. Usul-us-savtiya fonetik o'qitish metodi, ta'lim mazmunini tanlashning ilmiy mezonlari hamda



milliy ta'limni zamonaviylashtirishga oid g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan pedagogik-metodik yondashuvlar hisoblanadi. Shu bois jadid pedagogik konsepsiyasini zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyoti bilan qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning integratsiya nuqtalarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi jadid pedagogik merosining asosiy tarkibiy qismlarini, jumladan, ta'lim mazmunini tanlash mezonlari, o'qitish metodikasi, xalqaro tajribani o'zlashtirish tashabbuslari va pedagogik merosni institutsionallashtirish masalalarini tahlil qilish hamda ularni zamonaviy ta'lim konsepsiyalari - constructivism, competency-based learning, Universal Design for Learning (UDL), phonics va deep learning yondashuvlari bilan qiyoslash asosida ularni ta'lim amaliyotiga integratsiya qilishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadid pedagogik merosini o'rganishning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, mamlakatimiz ta'lim tizimida Turkiston jadidlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni o'rganish yosh avlodda yurt mustaqilligi va ozodligini qadrlash, ilm-ma'rifat jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarining o'quv adabiyotlariga kiritilgan jadidchilik harakati namoyandalarining o'lmas g'oyalari o'quvchi va talaba shaxsini har tomonlama kamol toptirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish, yoshlarning siyosiy va madaniy hayotga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda zamonaviy fanlarni egallashida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim tizimida jadidchilik harakatini o'qitish nafaqat milliy tarixni o'rganish, balki o'quvchi va talabalarda milliy g'ururni shakllantirish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv ta'lim jarayonining yangilanishini ta'minlaydi hamda yosh avlodni tarbiyalashda samarali pedagogik vositalarni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalari asosida ta'lim tizimida jadidchilik harakatini o'qitishning quyidagi dolzarb vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yoshlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish;
- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- jadid allomalarining ma'rifiy qarashlari orqali ta'lim sifatini oshirish;
- jadidlar asos solgan taraqqiyparvar g'oyalarni zamonaviy metodik tajriba sifatida qo'llash;
- ularning milliy yuksalish yo'lidagi faoliyatini o'quvchi va talabalarga tizimli ravishda yetkazish.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda ta'lim tizimida jadidchilik harakatini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish, dars va mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlarni qo'llash hamda mavzularni yangi manbalar bilan boyitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Jadid pedagogik g'oyalarining amaliy tatbig'ini to'laqonli anglash uchun ularning ijtimoiy-siyosiy zaminini ko'rib chiqish zarur. "Yosh buxoroliklar" firqasi Buxoro amirligida jadidlarning "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") maxfiy jamiyati negizida tashkil topgan bo'lib, 1910-1920-yillarda "Yosh buxoroliklar" partiyasi nomi bilan faoliyat yuritgan. Uning tarkibiga taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar hamda shahar kambag'allari vakillari kirgan. Harakat dastlab mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlarni amalga oshirish, konstitutsiyaviy monarxiyani joriy etish orqali amirning mutlaq hokimiyatini cheklash tarafdori bo'lgan.

XX asr boshlarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayotida islohotlar zarurligi g'oyasi tobora shakllana boshladi. "Yosh buxoroliklar" harakatining maqsad va vazifalari, dunyodagi ijtimoiy-siyosiy voqealar hamda davlat boshqaruvi tizimi haqidagi qarashlarni o'zida mujassam etgan rasmiy dasturiy hujjatga ehtiyoj tug'ildi. Shu munosabat bilan "Yosh buxoroliklar" qo'mitasi ***"Buxoroda islohot loyihasi"***ni ishlab chiqishni harakatning yetakchi namoyandalaridan biri Abdurauf Fitratga topshirgan edi. Mazkur holat jadidchilik harakatining nafaqat ta'lim, balki davlat qurilishi sohasidagi islohotchilik salohiyatini ham namoyon etadi. Ya'ni jadid pedagogikasi kengroq ijtimoiy-siyosiy islohotlar tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllangan.

Jadid innovatsiyasining eng yorqin ifodasi usul-us-savtiya, ya'ni yangi usul yoki fonetik o'qitish metodidir. Mazkur metodning nazariy asoschisi Ismoil Gaspirali (Gasprinskiy) bo'lsa-da, uni Markaziy Osiyo sharoitiga moslashtirish va takomillashtirish borasidagi asosiy xizmat mahalliy jadid muallimlariga tegishlidir.

Eski usulda (usuli-qadim) bolalar harflarni alohida-alohida yodlab, keyinchalik ularni qo'shib o'qishga o'tganlar. Bu jarayon ko'pincha ikki-uch yil davom etgan, biroq o'quvchi aksariyat hollarda matn mazmunini anglamagan holda uni mexanik tarzda takrorlagan. Usul-us-savtiya metodida esa tovush (savt) birlamchi birlik sifatida olinadi: avvalo bolaga tovushlar o'rgatiladi, keyin ular harflar bilan bog'lanadi va shundan so'ng bo'g'in, so'z hamda jumla darajasiga o'tiladi.

Zamonaviy lingvistika va o'qish pedagogikasi nuqtayi nazaridan usul-us-savtiya fonematik ongni rivojlantirishga asoslangan zamonaviy Phonics metodining o'sha davrdagi analogi hisoblanadi. 2000-yillarda olib



borilgan neyrokognitiv tadqiqotlar fonetik o'qitish metodlarining analitik-sintetik metodlarga nisbatan o'quvchilarda o'qish savodxonligini tezroq va puxta shakllantirishini isbotlagan. Bu esa jadid muallimlarining bir asr avval intuitiv ravishda ishlab chiqqan metodik yechimlari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlanayotganini ko'rsatadi.

Muhimi shundaki, usul-us-savtiya nafaqat texnik metod, balki pedagogik falsafaning ifodasi ham edi. U o'quvchini passiv yodlovchidan faol tafakkur egasiga aylantirishga xizmat qiluvchi metodologik vosita sifatida yaratilgan. Shu ma'noda mazkur metod zamonaviy Deep Learning (chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim) konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi. Har ikkala yondashuv ham mexanik yodlashdan tushunishga, yuzaki bilim egallashdan chuqur anglashga yo'naltirilgan ta'limni ustuvor deb hisoblaydi.

Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash zamonaviy ta'lim islohotlarining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida maktab o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilmoqda. Jadid pedagogikasining tamoyillari ushbu jarayonga muhim metodologik yo'nalish berishi mumkin.

Jadidlar ta'lim mazmunini tanlashda uchta asosiy mezonga tayanganlar:

- hayotiylik - bilim kundalik hayotda qo'llanilishi kerak;
- milliylik - bilim milliy o'zlikni mustahkamlashi kerak;
- zamonaviylik - bilim jahon ilm-fani va texnikasi bilan hamqadam bo'lishi kerak.

Mazkur uch mezon zamonaviy ta'lim dizaynida qo'llaniladigan Relevance, Identity va Currency (dolzarblik, o'ziga xoslik va zamonaviylik) tamoyillari bilan mazmunan mutanosibdir. Bu holat bir asr avval shakllangan milliy pedagogik tafakkurning bugungi xalqaro ta'lim nazariyalari bilan konseptual jihatdan uyg'un ekanligining yorqin dalili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amaliy jihatdan, ta'lim mazmunini jaded-zamonaviy integratsion model asosida modernizatsiya qilish uchun quyidagi yondashuv taklif etiladi: har bir mavzu bo'yicha jadid adabiyotidan tegishli birlamchi matnlarni tanlash va ularni zamonaviy ilmiy tushunchalar bilan uyg'un holda o'rganish. Masalan, matematika darsida Ismoil Gaspirali (Gasprinskiy)ning savdo masalalariga oid matnlarini zamonaviy moliyaviy savodxonlik mavzusi bilan integratsiyalash mumkin.

Ona tili va adabiyot darslarida jadid mualliflari nafaqat adabiy meros sifatida o'rganilishi, balki ularning til haqidagi metodologik yondashuvlari ham zamonaviy kommunikativ metodika bilan boyitilishi lozim. Bu yondashuv o'quvchilarda til haqidagi metaong (metalinguistic awareness)ni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jadidlarning 1911-1923-yillar oralig'ida chet ellarga talabalar yuborish tashabbuslari kelajakdagi Turkistonning madaniy taraqqiyoti yo'lidagi muhim bosqichlardan biri bo'lgan. Buxoro Respublikasidan Istanbul, Berlin va Moskvaga yuborilgan talabalar guruhlari (1921-yil) mazkur jarayonning yorqin misolidir. Ushbu tashabbus jadidlarning ta'limni nafaqat milliy zamin, balki xalqaro ilmiy-madaniy muhit bilan uzviy aloqada rivojlantirish g'oyasini amalga oshirish yo'lidagi izchil siyosatini ifodalaydi.

Afsuski, Sovet tuzumi ushbu tashabbuslarni 1924-yildan boshlab to'xtatib qo'ydi. Chet ellarda tahsil olayotgan talabalarining ayrimlari 1929-1931-yillar oralig'ida Vatanga qaytganlarida ularga nisbatan qatag'onlar boshlandi, ular qamoqqa olindi yoki Sibirga surgun qilindi. Bundan xabar topgan talabalarining aksariyati Vatanga qaytmasdan, ayniqsa Germaniya va Turkiyadagi universitetlar hamda boshqa ilmiy muassasalarda faoliyat yuritib, taniqli olimlar sifatida katta obro'-e'tibor qozondilar. Biroq ular umrining qolgan qismini chet ellarda o'tkazishga majbur bo'lib, Vatanga qaytolmasdan vafot etdilar. Ularning farzandlari va nabiralari bugungi kunda ham xorijiy mamlakatlarda istiqomat qilmoqda.

Mazkur tarixiy voqelik jadid pedagogik strategiyasining ikki muhim jihatini namoyon etadi. Birinchidan, milliy ta'lim tizimini xalqaro tajriba bilan boyitish g'oyasining amaliy ifodasi; ikkinchidan esa ushbu jarayon siyosiy repressiyalar tufayli o'zining mantiqiy yakuniga yetkazilmaganligini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim siyosatida akademik almashinuv va xalqaro hamkorlik dasturlarini rivojlantirishda ushbu tarixiy tajribani chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadid pedagogik merosini zamonaviy jamiyat hayotiga tatbiq etishning muhim yo'nalishlaridan biri ushbu merosni institutsional darajada saqlash va targ'ib etish hisoblanadi. Buxoroda jadidchilik tarixiga bag'ishlangan ilk muzey 2023-yil 16-iyunda ochilgan bo'lib, 2024-yil 30-mayda uni davlat muzeyi sifatida tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Buxoro shahridagi "Hovli poyon" uyida O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi ishtirokida jadidchilik tarixiga bag'ishlangan ilk muzey tashkil etildi. Mazkur uy O'rta Osiyo jadidchiligi yetakchilaridan biri Usmonxo'ja Po'latxo'jayevga tegishli bo'lgan.



1860-1870-yillarda qurilgan va "G'oziyon" mahallasida, Gavkushon madrasasi yonida joylashgan ushbu uy mashhur ziyoli, ma'rifatparvar hamda O'rta Osiyo jadidchiligi yetakchilaridan biri Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning xonadoni bo'lgan. Aynan shu yerda ilk yangi usul maktablaridan biri tashkil etilib, o'quvchilarga zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda ona tili, matematika, tarix, geografiya va boshqa fanlar bepul o'qitilgan.

Uyning yaxshi saqlanib qolgan tarixiy qismida zarur restavratsiya ishlari amalga oshirilgan, yangi binolar esa rekonstruksiya qilingan. Muzei ekspozitsiyasida jadidchilik namoyandalarining qo'lyozmalari, shaxsiy buyumlari hamda jadidchilik tarixini yorituvchi zamonaviy multimediya tizimi o'rin olgan. Muzei qoshida jadidlar merosini o'rganishga ixtisoslashgan ilmiy markaz tashkil etish ham rejalashtirilgan bo'lib, unda olimlar ilmiy faoliyat uchun zarur bo'lgan materiallar va arxivlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muzeyni tashkil etish tashabbuskorlaridan biri, Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning o'g'li Timurxo'ja bo'lajak muzei fondiga qadimiy va qimmatli qo'lyozmalarni o'z ichiga olgan boy kutubxonasini hamda zamonaviy adabiyotlarning keng to'plamini hadya qilgan. Ushbu misol jadid merosini asrash va targ'ib etishda nafaqat davlat, balki jamoatchilik hamda meros davomchilarining ham faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi. Bu esa mazkur merosni ta'lim tizimiga integratsiya qilish uchun barqaror institutsional asos yaratilayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'tkazilgan tarixiy-pedagogik tahlil Turkiston, xususan Buxoro jadidchilik harakati vakillari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik konsepsiyalar nafaqat tarixiy qimmatga, balki bugungi ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Usul-us-savtiya metodining zamonaviy Phonics va Deep Learning yondashuvlari bilan mazmuniy uyg'unligi, ta'lim mazmunini tanlashning hayotiylik - milliylik - zamonaviylik mezonlarining xalqaro Relevance - Identity - Currency tamoyillariga mosligi, shuningdek jadidlarning xalqaro ta'lim tajribasini o'zlashtirish borasidagi tashabbuslari jadid pedagogikasining yuksak ilmiy-nazariy salohiyatini tasdiqlaydi.

Jadid pedagogik merosini zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning samarali yo'nalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- o'quv dasturlariga jadid manbalarini fanlararo integratsiya asosida kiritish;
- pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida jadid metodikasi tarixini alohida modul sifatida o'qitish;
- jadidchilik merosiga bag'ishlangan muzeylar va ilmiy markazlar bilan ta'lim muassasalari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- raqamli ta'lim muhitida (jumladan, ixtisoslashtirilgan mobil ilovalar va Telegram-botlar orqali) jadid pedagogik g'oyalarni yosh avlod orasida ommalashtirishning zamonaviy vositalarini yaratish.

Mazkur yo'nalishlar jadid pedagogik merosini zamonaviy ta'lim tizimiga samarali integratsiya qilish bilan birga, ushbu sohadagi kelgusi ilmiy tadqiqotlar uchun ham istiqbolli metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. M. Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidagi nutqi. - Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi qaror: PQ-201, 2024 yil 30 may. - Toshkent, 2024.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000. - 384 b.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - 304 b.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 160 b.
6. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. - Toshkent: Fan, 1966. - 304 b.
7. G'aspirali I. Rossiya musulmonligi. - Qozon, 1881; qayta nashr. - Toshkent, 2007. - 208 b.
8. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2001. - 352 b.
9. Xo'jaev F. Tanlangan asarlar: 3 jildlik. - Toshkent: Fan, 1976.
10. G'aniev I. G'. O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1998. - 272 b.
11. Munavvarov Z. I. Milliy pedagogika asoslari. - Toshkent: Fan, 2005. - 256 b.
12. Rasulov T. Jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik g'oyalari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. - 288 b.
13. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 2004. - 224 b.
14. Adams M. J. Beginning to Read: Thinking and Learning about Print. - Cambridge, MA: MIT Press, 1990. - 494 p.
15. National Reading Panel. Teaching Children to Read: An Evidence-Based Assessment of the Scientific Research Literature on Reading. - Washington, DC: National Institute of Child Health and Human Development (NICHD), 2000. - 449 p.
16. CAST. Universal Design for Learning Guidelines. Version 2.2. - Wakefield, MA: CAST, 2018. - 84 p.
17. Ausubel D. P. The Psychology of Meaningful Verbal Learning. - New York: Grune & Stratton, 1963. - 255 p.
18. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. - Berkeley: University of California Press, 1998. - 351 p.
19. Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot materiallari. 2024-2026 yillar. - Buxoro: Buxoro davlat pedagogika instituti, 2026.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.